

MEHNAT RESURLARIDAN SAMARALI FOYDALANISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR

G'.F.Qo'chqorov - *Qarshi davlat universiteti professori.*

O'zbekiston.

Annotatsiys: *Ushbu maqola milliy iqtisodiyot tarmoqlarida mehnat resurslaridan samarali foydalanish imkoniyatlari aniqlashga bag'ishlanadi. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish tarmoq korxonalarida mehnat resurslaridan foydalanish va unga ta'sir etuvchi omillar o'rganilgan.*

Kalit so'zlar: *Mehnat resurslari, bandlik, ish vaqti, ish soati, texnologiya innovatsiya, omillar.*

ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА ЭФФЕКТИВНОЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ТРУДОВЫХ РЕСУРСОВ

Г.Ф.Кучкаров - профессор Каршинского государственного университета.

Узбекистан.

Аннотация: *Данная статья посвящена выявлению возможностей эффективного использования трудовых ресурсов в отраслях национальной экономики. Изучено использование трудовых ресурсов на предприятиях сельскохозяйственного производства и факторы, влияющие на него.*

Ключевые слова: *Трудовые ресурсы, занятость, рабочее время, рабочее время, технологии, инновации, факторы.*

FACTORS AFFECTING THE EFFECTIVE USE OF LABOR RESOURCES

G.F. Kuchkarov - Professor of Karshi State University.

Uzbekistan.

Abstract: *This article is dedicated to identifying the possibilities of efficient use of labor resources in the sectors of the national economy. The use of labor resources at agricultural production enterprises and the factors influencing it were studied.*

Keywords: *Labor resources, employment, working hours, working hours, technology, innovation, factors.*

Respublikada hozirgi milliy iqtisodiyot sharoitida qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish tarmoq korxonalarida mehnat resurslaridan foydalanish darajasini aniqlash ma'lum qiyinchiliklar bilan bog'liq. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish subyektlarida mehnat resurslaridan foydalanish darajasini aniqlash eng dolzarb muammo deb hisoblash mumkin. Mehnat resurslaridan foydalanish darajasini qanday usul bilan aniqlash mumkin.

Qishloq xo'jaligi tarmoqlarida mehnat resurslaridan samarali foydalanish imkoniyatlaridan biri mehnatni mavsumiyligi davrini qisqartirish hisobiga ulardan yil davomida barqaror foydalanilishiga erishish mumkin. Demak mehnat resurslaridan samarali foydalanishni asosiy yo'li mehnat qilishning mavsumiylilik darajasini qisqartirish hisoblanadi. Mehnatni mavsumiylilik davrini qisqartirish hisobiga mehnat resurslarining ish kunlari bandligini oshirishga erishish mumkin.

Biz yuqorida keltirgan fikrlarini to'liq tushunish uchun uni misolda ifodalaymiz. Masalan mehnat resurslarini mehnat jarayonida ularni bandligini bir yilda 2586 ming soat deb belgilasak keyingi yilda bu ko'rsatkich 2106 ming soatni tashkil etgan bo'lsa, bandlikni aniqlashda umumiy bir yildagi ish kunini o'rtacha 290 deb hisoblasak, bir yil ichida ish soatini aniqlashda 2586 ming. ish soatini 2106 ming ish soatiga teng bo'lgan bo'lsa ikki yil ichida ish kuni soati 8,9 soat 7,2 soatga yoki 1,7 soatga kamayganini ko'rish mumkin.

Bu ko'rsatkich mehnat unumdorligini umumiy holatini ifodalovchi ko'rsatkich deb hisoblasak to'g'ri bo'ladi. Chunki ish kuni soatini 1,7 soatga kamayishi mehnat unumdorligidan samarali foydalanayotganini ko'rsatadi. Bu iqtisodiy xolatda tejalgan mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligini aniqlash uchun ishlab chiqarish xajmini kengaytirish yoki ortiqcha mehnat resurslaridan boshqa tarmoq sohalarida foydalanish zarur.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida mehnat resurslaridan samarali foydalanishni asoslovchi ko'rsatkichlaridan biri jon boshiga yoki ish kuni soatiga natural va qiymat shaklida yalpi mahsulot ishlab chiqarish orqali aniqlash mumkin. Kishi boshiga yoki ish soatiga qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish tarmoq tarkiblarini o'zgarishiga ham bog'liq. Agarda serhosil va xarid qilish

qiymati yuqori bo'lgan o'simlikshunoslik tarmog'ida o'simlik ekilsa va yetishtirilsa albatta u kishi boshiga yoki ish kuni soatiga nisbatan mahsulot ishlab chiqarish qiymatini o'sishiga ta'sir etadi. Shu bilan birga o'simliklarning xosildorligini oshirish bilan bog'liq bo'lgan agrotexnik shart-sharoitlarni tashkil etishga e'tibor berishni kuchaytirish zarur deb hisoblaymiz. Agrotexnik tadbirlarni amalga oshirish kishi boshiga yoki ish soatiga mahsulot ishlab chiqarishda qishloq xo'jaligida o'simlikshunoslik tarmoqlarida ularni joylashtirishda agrotexnik tadbirlarni amalga oshirish nuqtai nazaridan e'tiborga olish bilan birga mehnat haqlarini to'lashda xar bir mehnat resurslarini yakuniy bajargan ishi natijalarini e'tiborga olish zarur deb hisoblaymiz. Mehnat resurslaridan samarali foydalanishga ta'sir etuvchi omillarni quyidagi: texnik-texnologik omillarga, tashkiliy omillarga, iqtisodiy-ijtimoiy omillarga, tarkibiy omillarga va tabiiy omillarga bo'lish mumkin. Bu omillarni o'rganish asosida qishloq xo'jaligida mehnat resurslaridan samarali foydalanish yo'lini belgilab olish mumkin.

Mehnat resurslaridan foydalanishga ta'sir etuvchi omillar umumiy majmua shaklida mehnat unumdorligiga o'z ta'sirini o'tkazadi qachonki ishlab chiqarishning asosiy omili bo'lgan inson mehnatini to'g'ri tashkil qilib uning tadbirkorlik darajasini oshirishni o'zaro bog'liqlikda olib borilsa.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida mehnat resurslaridan samarali foydalanishda agrotexnologik talablar asosida bajariladigan ishlarini og'ir, yengil, oddiy va murakkabligiga qarab mehnat qilish normativlariga asosan band bo'lgan mehnat resurslarini manfaatdorlik talablari darajasiga mos kelsagina ularning mehnatlarini unumdorlik darajasi yuqori bo'lishi mumkin.

Bozor munosabatlari sharoitida bo'ladigan ishlab chiqarishni tarkibiy tuzilishini bozor talablari asosida takomillashtirib borish talab va taklifga asoslangan xoldagina band bo'lgan mehnat resurslaridan samarali foydalanishga, ishlab chiqarish unumdorligini o'sib borishiga o'z ta'sirini o'tkazadi. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish tarmoq tarkiblarining o'zgarishi obyektiv ravishda iste'mol bozori talablari asosida amalga oshirilishi umumiy ijtimoiy mehnat

xarajatlarini kamaytirishga iqtisodiy-ijtimoiy yo‘nalishda qishloq xo‘jaligini barqaror rivojlanishini ta‘minlaydi. Buning uchun :

- qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishda uning tarkibiy tuzilishi na faqat tarmoqlar o‘rtasida emas balki dehqon va fermer xo‘jaliklari o‘rtasida ichki xo‘jaliklari o‘rtasida ham bo‘lishiga;


- xo‘jaliklar darajasida ishlab chiqarilgan mahsulotni yakuniy iste‘mol va yalpi jamg‘arma darajasida bo‘lishiga;

- texnik-iqtisodiy yo‘nalishda esa qishloq xo‘jaligi tarmoqlari yoki ishlab chiqarish korxonalari yo‘nalishlariga qarab tarmoqlar nisbatini ishlab chiqarish jarayonini mexanizatsiyalash, elektr quvvatlaridan foydalanish, ularni asosiy ishlab chiqarish fondlari bilan ta‘minlash yoki ishlab chiqarishni yiriklashtirish va ixtisoslashtirish asosida amalga oshirish mumkin.

Qashqadaryo viloyati Kasbi tumani fermer xo‘jaliklarida ishlab chiqarish va ularning samaradorligini oshirish bo‘yicha 14 savolga asosan 65 ta fermer xo‘jaliklarida 2023 yil oktabrda so‘rovnoma o‘tkazildi. So‘rovnomada qatnashgan 65 ta fermer xo‘jalik rahbarlarining 60,1 foizi berilgan savollarga “xa” deb javob bergan, 30,5 foizi “yo‘q” deb, kolgan 9,4 foizi javob bermagan.

So‘rovnomada fermer xo‘jaligi xo‘kuqiy jihatdan to‘liq ta‘minlangan savoliga 69,2 foiz, faoliyatini olib borishda yuqori mahaliy tashkilotlar bilan kelishish shartmi savoliga 76,9 foiz, xo‘jaligi ishchilarini yer normativlari asosida ishga qabul qilishga 23,0 foiz, investitsiya mablag‘i yetishmaganda xo‘jalik a‘zolari mablag‘laridan foydalanishga 64,6 foiz, kredit tulovlariga belgilangan foiz 15,3 foiz, qishloq xo‘jaligi maxsulotlarini iste‘mol bozoriga chiqarishda davlat va nodavlat korxonalari bilan shartnoma tuzishga 38,4 foiz, qishloq xo‘jaligi maxsulotlarini sanoat asosida qayta ishlashga 76,9 foiz, fermer ishlab chiqarishni tashkil etish uchun qishloq xujaligi mutaxassislarning zarurligiga 15,3 foiz, oliy malakali mutaxassis kadrlar tayyorlash fondini tashkil etishga 95,3 foiz, fermer xo‘jalik oila a‘zolarini sihat salomatligini ta‘minlash mahsus sog‘liqni saqlash fondini tuzishga 12,3 foiz, xo‘jalik yillik faoliyati bo‘yicha xo‘jalik rahbari

hisobotini tinglash va baho berishga 83,0 foiz, fermer xo‘jaligida ishlab chiqarishni klaster usulida tashkil etishga 83 foiz, fermer xo‘jaliklararo mashina, traktor va qishloq xo‘jaligi texnikalari bilan ta‘minlashga bilan bog‘liq bo‘lgan korxonalar zarurligiga 100 foiz, fermer xo‘jaliklarida mehnatni natural va qiymat shaklida motivatsiyalashga 76 foiz respondentlar ijobiy munosabat berilgan. Qolgan savollarga yo‘q yoki munosabat bildirilmagan. Umuman xulosa qiladigan bo‘lsak fermer xo‘jaliklarini malakaviy, iqtisodiy-ijtimoiy va kasbiy darajalarini davlatning iqtisodiy va ijtimoiy siyosatidan kelib chiqan xolda oshirib borish zarur.



1-rasm. Fermer xo‘jaliklarida ishlab chiqarish va ularning samaradorligini oshirish bo‘yicha so‘rovnoma tahlili

Fermer xo‘jaliklarida ishlab chiqarish va ularning samaradorligini oshirish bo‘yicha so‘rovnoma savollari ilovada keltirilgan. Umuman xulosa qiladigan bo‘lsak fermer xo‘jaliklarini malakaviy, iqtisodiy-ijtimoiy va kasbiy darajalarini davlatning iqtisodiy va ijtimoiy siyosatidan kelib chiqan xolda oshirib borish zarur.

Qishloq xo‘jaligida mehnat resurslarini ishlab chiqarish talabiga nisbatan ortiqqligini oldini olish, uni yumshatish uchun quyidagi ishlarni amalga oshirish zarur:

- qishloq xo‘jaligi tarmoqlarida ishlab chiqarishni samarali olib borish uchun zarur bo‘lgan mehnat resurslarini xar ish kuchiga belgilangan yer maydonidan kelib chiqqan xolda tashkil etishga;

- mehnat resurslaridan samarali foydalanishni ta'minlash uchun qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sanoat asosida qayta ishlab chiqarish kichik korxonalarni tashkil etishni rivojlantirishga;

- qishloq xo'jaligida o'simlikshunoslik tarmoqlarida ayollar mehnatidan xizmat ko'rsatish sohalarida foydalanish hisobiga erkaklardan foydalanish nisbatini oshirishga e'tibor berish zarur.

Qishloq xo'jaligi tarmoqlarida mehnat resurslaridan foydalanish imkoniyatlari yetarli darajada bo'lib ular quyidagilardan tashkil topadi:

- qishloq xo'jaligi mehnatini og'ir va murakkab mehnat ekanligini tan olgan xolda mehnatga yaroqli ayollar mehnatidan mutaxassilar sifatida foydalanish yoki boshqa yengil ishlab chiqarish sohalarida foydalanish zarur;

- ayollar mehnatlaridan foydalanishni ta'minlash uchun qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlab chiqarish korxonalarini qishloq joylarida tashkil etish va ularni rivojlantirish zarur;

- ayollar mehnatlaridan chorvachilik fermalarida yoki qishloq xo'jaligi tarmoqlarida ishlab chiqarish bo'limlarida hisob-kitob ishlarini olib borishda foydalanish maqsadga to'g'ri bo'ladi;

- ayollar mehnat resurslaridan samarali foydalanishni ijtimoiy sohalarda zarur bo'lgan madaniy –ma'naviy va maishiy shart-sharoitlarni yaratish asosida amalga oshirish mumkin.

Foydanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 11.09.2023 yildagi PF-158-son "O'ZBEKISTON — 2030" STRATEGIYASI TO'G'RISIDA
2. А.С.Солиев ва бошқалар Иқтисодий ва ижтимоий география. Олий ўқув юртлари учун дарслик. Наманган 2024 йил //MASHRAB 406 бет
3. Абдурахмонов Қ.Х. Меҳнат бозори назариясига янгича ёндашувлар // "Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар" илмий электрон журнали. № 1, сентябрь, 2011. –Б.46-52. Iqtisodiyot.uz
4. Абдурахмонов Қ.Х. Меҳнат иқтисодиёти (назария ва амалиёт). Олий ўқув юртлари учун дарслик. – Т.: Меҳнат, 2004.-203-214-б.
5. Аҳмедов Д.Қ. ва бошқалар. Макроиқтисодиёт. -Т.: 2004. –147 б.

6. Владимирова Л.П. Экономика труда. Учебное пособие. – М.: Издательский Дом «Дашков и К», 2000. -стр. 244.
7. Ёлмасов А., Вахобов А. Иқтисодиёт назарияси. – Т.: Шарқ, 2006. –36 б.
8. <https://stat.uz/uploads/docs/>
9. Экономика труда (социально-трудовые отношения) // Под ред. Н.А.Волгина, Ю. Г. Одегова. – М.: Экзамен, 2008. С.145-147.